



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI  
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI  
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH  
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI  
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

# YAKUNIY HISOBOT



**"INTERNATIONAL HOUSE LYCEUM"**

Nodavlat o'rta maxsus ta'lim tashkiloti

**3930002 – Ijtimoiy-gumanitar fanlar (tarix, xorijiy til)**

O'rta maxsus ta'lim



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI  
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI  
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

**3930002 – Ijtimoiy-gumanitar fanlar (tarix, xorijiy til)**

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN  
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

**“INTERNATIONAL HOUSE LYCEUM”  
NODAVLAT TA'LIM TASHKILOTI**


*(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)*

## EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



**Rais: Nadjimxodjayeva Adalat Erkinovna**

**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti akademik litseyi**



**A'zo: Dustmurodova Zilola Xaqnazarovna**

**O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti akademik litseyi**

## 1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

|                                                              |                                                                                                                                                             |
|--------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Ariza raqami                                                 | MAA260005                                                                                                                                                   |
| Xulosa raqami                                                | 853                                                                                                                                                         |
| Xulosa sanasi                                                | 15.06.2026                                                                                                                                                  |
| Ta'lim tashkilotining to'liq nomi                            | "INTERNATIONAL HOUSE LYCEUM" nodavlat ta'lim muassasasi                                                                                                     |
| Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari | Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Mashinasozlar MFY, Yangibozor ko'chasi, 1-a-uy. Litsenziya: L-44092833, 26.12.2025. Guvohnoma: MAS № 0000176, 19.06.2026 |
| Baholangan ta'lim dasturi nomi                               | Ijtimoiy-gumanitar fanlar (tarix, xorijiy til)                                                                                                              |
| Yo'nalish / mutaxassislik kodi                               | 3930002                                                                                                                                                     |
| Akkreditatsiya usuli                                         | Joyiga chiqib                                                                                                                                               |

## 2. HUQUQIY ASOSLAR

### Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

### Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

### 3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

|                                                                                                                      |                                                                                   |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------|
| <b>1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi:</b><br><i>License/Certificate of Educational Institution:</i>    | L-44092833 / 26.12.2025                                                           |
| <b>2. Ta'lim tashkilotining turi:</b><br><i>Type of Educational Institution:</i>                                     | O'rta maxsus ta'lim                                                               |
| <b>3. Ta'lim dasturi kodi va nomi:</b><br><i>Code and Name of Study Programme:</i>                                   | 3930002 – Ijtimoiy-gumanitar fanlar (tarix, xorijiy til)                          |
| <b>4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi:</b><br><i>Name of Study Programme in English:</i>                 | 3930002 – Social and Humanitarian Sciences (History, Foreign Language)            |
| <b>5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi:</b><br><i>Name of Study Programme in Russian:</i>                    | 3930002 – Социально-гуманитарные науки (история, иностранный язык)                |
| <b>6. Hamkorlikda amalga oshirilishi:</b><br><i>Offered in Cooperation with:</i>                                     | —                                                                                 |
| <b>7. Ta'lim tili:</b><br><i>Medium of Instruction:</i>                                                              | rus                                                                               |
| <b>8. Ta'lim shakli:</b><br><i>Mode of Study:</i>                                                                    | kunduzgi                                                                          |
| <b>9. Ta'lim dasturi hajmi:</b><br><i>Study Programme Credits:</i>                                                   | 120 kredit                                                                        |
| <b>10. Ta'lim dasturi davomiyligi:</b><br><i>Duration of Study Programme:</i>                                        | 2 yil                                                                             |
| <b>11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi:</b><br><i>Level in National Qualifications Framework:</i>                 | 3-daraja                                                                          |
| <b>12. Kvalifikatsiya(lar) nomi:</b><br><i>Qualification Title:</i>                                                  | —                                                                                 |
| <b>13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar:</b><br><i>Additional Qualifications Awarded:</i>                    | —                                                                                 |
| <b>14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi:</b><br><i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>       | Davlat namunasidagi diplom                                                        |
| <b>15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr):</b><br><i>Maximum Number of Students (full period):</i> | 758 nafar                                                                         |
| <b>16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili:</b><br><i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>              | Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Mashinasozlar MFY, Yangibozor ko'chasi, 1-a-uy |

#### 4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvoqif / muvoqif emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvoqif / qisman muvoqif / muvoqif emas) deb baholanadi.

| No        | Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari                                                                                                              | Muvofiqligi    |
|-----------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------|
| <b>1.</b> | <b>Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash</b>                                                                                                   | <b>Muvofiq</b> |
| 1.1.      | ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*                                 | Muvofiq        |
| 1.2.      | ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 3 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;                           | Muvofiq        |
| 1.3.      | ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki;                | Muvofiq        |
| 1.4.      | mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;                                   | Muvofiq        |
| <b>2.</b> | <b>Ta'lim dasturlari</b>                                                                                                                           | <b>Muvofiq</b> |
| 2.1.      | ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, davlat ta'lim standarti (DTS) va milliy malakalar ramkasi (MMR) talablariga muvofiqligi;* | Muvofiq        |
| 2.2.      | manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani va tasdiqlangani;                                        | Muvofiq        |
| 2.3.      | ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligining ta'minlangani;                                                            | Muvofiq        |
| <b>3.</b> | <b>O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash</b>                                                                               | <b>Muvofiq</b> |
| 3.1.      | ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*                                                             | Muvofiq        |
| 3.2.      | o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*                                                    | Muvofiq        |
| 3.3.      | o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;                                                                    | Muvofiq        |
| 3.5.      | ta'lim dasturi doirasida o'quvchilar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;             | Muvofiq        |
| 3.6.      | o'quvchilarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;                                                      | Muvofiq        |
| <b>4.</b> | <b>O'quvchilar faoliyati</b>                                                                                                                       | <b>Muvofiq</b> |
| 4.1.      | ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;                                 | Muvofiq        |
| 4.2.      | qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*                                                           | Muvofiq        |

| No   | Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari                                                                                                                                                                                               | Muvofiqligi |
|------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------|
| 4.4. | <i>o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>                                                                                                                                      | Muvofiq     |
| 5.   | <b>Inson resurslari</b>                                                                                                                                                                                                             | Muvofiq     |
| 5.1. | <i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i> | Muvofiq     |
| 5.3. | <i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>                                | Muvofiq     |
| 5.4. | <i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>                                                                                        | Muvofiq     |
| 6.   | <b>Moddiy-texnik ta'minot</b>                                                                                                                                                                                                       | Muvofiq     |
| 6.1. | <i>ta'lim tashkilotidagi o'quv va laboratoriya xonalarining ta'lim dasturiga mosligi, o'quv xonalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) bilan jihozlangani;</i>                                                       | Muvofiq     |
| 6.2. | <i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun yetarli miqdorda moddiy-texnik baza, jihozlar, asbob-uskunalar va reaktiv moddalar hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>                                       | Muvofiq     |
| 6.3. | <i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>                                                                                          | Muvofiq     |
| 6.4. | <i>o'quv va laboratoriya xonalarining ta'lim dasturlariga mosligi, xavfsizlik qoidalari va o'quvchilar sonidan kelib chiqib jihozlangani;*</i>                                                                                      | Muvofiq     |
| 6.5. | <i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>                                    | Muvofiq     |
| 6.6. | <i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>                                                   | Muvofiq     |
| 6.7. | <i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, Wi-Fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>                                                                                                       | Muvofiq     |
| 6.8. | <i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>                                                                        | Muvofiq     |

## **5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR**

### **1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi**

Ta'lim yo'nalishi faoliyatini yo'lga qo'yish maqsadida ta'lim tashkilotida ijtimoiy-gumanitar fanlar, tabiiy fanlar, aniq fanlar hamda xorijiy tillar kafedralari tashkil etilgan, kafedra mudirlarini belgilangan tartibda tayinlash va ularning faoliyatini yo'lga qo'yish belgilangan hamda tarkibiy tuzilmani moddiy-texnik baza va moliyaviy resurslar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejalar ishlab chiqilgan.

“Ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim jarayonini takomillashtirish tartibi to'g'risida”gi nizom ishlab chiqilgan, ta'lim sifatini ta'minlash bo'limi tashkil etilib, bo'lim boshlig'i tayinlangan va uning yillik ish rejasi 2025-yil 23-avgustda direktor tomonidan tasdiqlangan.

Ta'lim dasturlarini rivojlantirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha 3 yillik “Istiqbolli reja” belgilangan tartibda ishlab chiqilgan bo'lib, unda xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish, o'quv reja va fan dastur-sillabuslarini ishlab chiqish, amaliy mashg'ulotlarning fanlararo integratsiyasini ta'minlash vazifalari rejalashtirilgan, shuningdek, xavf-xatarlar tahlili hamda ularni bartaraf etish bo'yicha muqobil choralar belgilangan.

Mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqot tendensiyalarini o'rganish bo'yicha monitoring rejasi ishlab chiqilgan va Pedagogik kengashda ko'rib chiqilgan.

### **2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi**

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturi loyihasi ishchi guruh tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u mehnat bozori va ta'limning zamonaviy tendensiyalari, davlat ta'lim standarti, malaka talablari, namunaviy o'quv reja, o'quv dasturlari va tegishli metodik ko'rsatmalarga mos keladi.

Namunaviy o'quv reja asosida akademik litseyning ishchi o'quv rejasi ishlab chiqilgan, Pedagogik kengash majlisi tavsiyasi bilan direktor tomonidan tasdiqlangan. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-martdagi 157-son qaroriga asosan qisqa muddatli kasbga tayyorlash dasturlari kiritilib, mehnat bozori talablariga mos deb belgilangan “Ofis-menejeri” mutaxassisligi tanlangan.

Unifikatsiya qilinadigan fanlar uchun ajratilgan soatlar “Ma'lumotlar bilan ishlash madaniyati” hamda “Jahon iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar” fanlariga, kasbiy fan soatlari “Ofis-menejeri” faniga ajratilgani ishchi o'quv rejada belgilangan. Ta'lim dasturi DTS, MMR va kasbiy standartlarga muvofiq tasdiqlangan.

### **3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi**

2025-yil 23-avgustda ishlab chiqilgan ishchi o'quv reja vazirlikning 2024-yil 20-avgustdagi 9-sonli bayonnomasi asosida tasdiqlangan namunaviy o'quv rejaga mos keladi. Umumiy o'quv yuklamasi 3960 soatni tashkil etib, umumta'lim fanlariga 1674 soat (42,3 %), chuqurlashtirilgan fanlarga 1890 soat (47,7 %), unifikatsiya qilinadigan fanlarga 216 soat (5,5 %), kasbiy fanlarga 108 soat (2,7 %) va davlat attestatsiyasiga 72 soat (1,8 %) ajratilgan; shulardan 960 soat nazariy, 1380 soat amaliy, 16 soat laboratoriya, 20 soat seminar mashg'ulotlariga hamda 1296 soat mustaqil ishga to'g'ri keladi.

Semestrlardagi haftalar soni 18 ta, haftalik yuklama 36 soat etib belgilangan. O'quvchilar bilimini nazorat qilish, baholash tizimi, monitoring qilish va takomillashtirib borish tartibi to'g'risidagi nizom ishlab chiqilgan bo'lib, unda joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari, 100 ballik baholash tizimi hamda apellyatsiya jarayonlari belgilangan.

Taklif, fikr-mulohaza va shikoyatlarni ko'rib chiqish jarayoni ochiqlik, hisobdorlik, shaffoflik va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik tamoyillari asosida amalga oshirilishi ko'rsatilgan.

### **4-bob. O'quvchilar faoliyati yo'nalishi**

Ta'lim muassasasining 2026-yil 23-apreldagi 14-sonli buyrug'i bilan qabul va apellyatsiya komissiyalari tarkibi tasdiqlangan: qabul komissiyasiga rais etib direktor, rais o'rinbosari etib o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, mas'ul a'zolar etib kafedra mudirlari, kotib etib ta'lim sifatini ta'minlash bo'limi boshlig'i tayinlangan; apellyatsiya komissiyasi tarkibiga rais-psixolog hamda har bir kafedradan bir nafardan o'qituvchi kiritilgan.

2026-yil 10-yanvardagi 02/a-sonli buyruq bilan o'quvchilarni qabul qilish, o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlatish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlangan.

Pedagogik kengashning 2025-yil 15-avgustdagi 1-sonli bayoni bilan "O'quvchilarni qo'llab-quvvatlash va maslahat berish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risida"gi nizom ishlab chiqilgan bo'lib, o'quvchilarga akademik, psixologik, ijtimoiy va kasbiy yo'nalishlarda maslahat berish tizimi rejalashtirilgan; ushbu xizmatlar to'g'risidagi ma'lumotlar ta'lim tashkilotining veb-saytida yoritib boriladi.

### **5-bob. Inson resurslari yo'nalishi.**

Muassasaning 15 nafar boshqaruv xodimi bo'yicha "Yagona milliy mehnat tizimi" orqali mehnat daftarchalaridan ko'chirmalar taqdim etilgan. 2026-yil 5-yanvarda shtatlar jadvali ishlab chiqilib, direktor tomonidan tasdiqlangan: shtat birliklari soni 124,0 ni, yillik mehnatga haq to'lash jamg'armasi 791 000 000,00 so'mni tashkil etadi.

Ta'lim dasturida faoliyat ko'rsatadigan pedagog kadrlar soni 27 nafar etib rejalashtirilgan bo'lib, ularning mutaxassisliklari dars beradigan fanlariga mos keladi, diplom va sertifikatlari taqdim etilgan.

Yangi ta'lim dasturi bo'yicha pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyoj tahlil qilingan, 2026-2027-o'quv yili uchun pedagog kadrlarning malaka oshirish reja-grafigi tasdiqlangan, kadrlarni stajirovka, ilmiy-amaliy konferensiya, vebinar, seminar-trening va forumlarga yuborish ishlari hamda ta'minlash rejasi ijrosini monitoring qilish mexanizmi rejalashtirilgan.

#### **6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi.**

O'quv xonalari axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan: muassasada 42 dona interaktiv doska, 16 dona printer, 72 dona monoblok, 6 dona televizor, 6 dona kolonka, 23 dona naushnik, 25 dona veb-kamera va 15 dona mikrofon mavjud. LMS – zamonaviy elektron o'qitish tizimi platformasi orqali elektron jurnal, elektron kundalik, dars jadvali, uy vazifalari va raqamli kutubxona funksiyalari yo'lga qo'yilgan; kutubxonada 10-11-sinf darsliklarining soni 1932 tani tashkil etadi.

Binolar va o'quv xonalari, shu jumladan yo'laklar, panduslar, eshiklar va sanitariya xonalari nogironligi bo'lgan shaxslar uchun moslashtirilgan, inklyuziv ta'lim bo'yicha 2 nafar psixolog faoliyati rejalashtirilgan. O'quvchilar va pedagoglar uchun barqaror internet va Wi-Fi zonalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgan. O'quvchilar soniga mos oshxona faoliyati shartnoma asosida yo'lga qo'yilgan, dam olish joylari, sport zali, sport maydonchalari va sog'lomlashtirish inshootlari mavjud.

Shu bilan birga, umumta'lim fanlaridan laboratoriya mashg'ulotlari uchun reaktiv moddalar, reagentlar, jihozlar va asbob-uskunalar bilan ta'minlanish yetarli darajada emas, fizika, kimyo va biologiya fanlari uchun bitta o'quv xona ajratilgan bo'lib, 2026-2027-o'quv yilida alohida xonalar tashkil etish rejalashtirilgan.

## **6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR**

**Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):**

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi.

**Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:**

- ✓ Ta'lim dasturining maqsadlari, kompetensiyalari va kutilgan o'quv natijalari yuzasidan o'tkazilgan tahlil ko'proq umumiy xulosalar bilan cheklanib qolgan, fan dasturlarini ishlab chiqishda mavjud muammolar kesimida yetarli tahlil amalga oshirilmagan (2.1.4-indikator "muvofiq emas" deb baholangan).
- ✓ Ayrim fanlar (adabiyot, o'zbek tili (rus guruhlar uchun), O'zbekiston tarixi, jahon tarixi, tarbiya, kimyo, biologiya, algebra va analiz asoslari, ingliz tili) bo'yicha ishchi o'quv dasturlarida mavzular kesimida soatlar taqsimoti jadval ko'rinishida aks ettirilmagan, umumta'lim algebra fani uchun ishchi dastur ishlab chiqilmagan, xitoy tili (2-xorijiy til) ishchi dasturi titul varag'ida fanning maqomi noto'g'ri ko'rsatilgan (3.1.2-indikator "muvofiq emas" deb baholangan).
- ✓ Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun umumta'lim fanlaridan laboratoriya mashg'ulotlariga zarur reaktiv moddalar, reagentlar, jihozlar va asbob-uskunalar bilan ta'minlanish yetarli darajada emas; fizika, kimyo va biologiya fanlari uchun bitta o'quv xona ajratilgan.
- ✓ O'quvchilarning laboratoriya ishlarini xavfsiz amalga oshirishi uchun xavfsizlik yo'riqnomalari hamda laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish bo'yicha metodik qo'llanmalar ishlab chiqilmagan.

**7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR**

- ✓ Barcha fanlarning ishchi o'quv dasturlarini Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-martdagi 157-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 14-bandida belgilangan talablar asosida qayta ishlab chiqish, nazariy, amaliy, laboratoriya va seminar mashg'ulotlari uchun ajratilgan soatlarni namunaviy va ishchi o'quv reja asosida to'g'ri taqsimlab, semestrlarga ajratish hamda navbatdagi Pedagogik kengashda muhokama qilib tasdiqlash.
- ✓ Tahlil natijalari asosida aniqlashtirilgan ta'lim dasturining maqsadlari, kompetensiyalari va kutilgan o'quv natijalarini Pedagogik kengashda muntazam muhokama qilib borish hamda aniqlangan kamchiliklar bo'yicha takomillashtiruvchi choralarni belgilash.

- ✓ Xitoy tili (2-xorijiy til) ishchi o'quv dasturi titul varag'ini "umumta'lim fani" emas, balki "chuqurlashtirilgan 2-xorijiy til" deb o'zgartirish.
- ✓ Fizika, kimyo va biologiya fanlari uchun alohida o'quv xonalar tashkil etish hamda o'quv dasturlarida nazarda tutilgan barcha laboratoriya ishlarini to'liq va sifatli bajarish uchun zarur jihozlar, asbob-uskunalar va laboratoriya materiallari bilan ta'minlash.
- ✓ Laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish bo'yicha metodik qo'llanmalar hamda o'quvchilarning laboratoriya ishlarini xavfsiz bajarishi uchun xavfsizlik yo'riqnomalarini ishlab chiqish.


## 8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Ekspert komissiyasi tomonidan o'tkazilgan tashqi baholash natijalariga ko'ra, "INTERNATIONAL HOUSE LYCEUM" nodavlat ta'lim muassasasining 3930002 – Ijtimoiy-gumanitar fanlar (tarix, xorijiy til) ta'lim dasturi bo'yicha tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash, ta'lim dasturlari, o'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash, o'quvchilar faoliyati, inson resurslari hamda moddiy-texnik ta'minot yo'nalishlarining barchasi "muvofig" deb baholandi. Ta'lim dasturi davlat ta'lim standarti, milliy malakalar ramkasi va malaka talablariga muvofiq ishlab chiqilgan va tasdiqlangan, sifatni ichki ta'minlash, monitoring, baholash hamda o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash tizimlari yo'lga qo'yilgan, zarur pedagog kadrlar va moddiy-texnik baza bilan ta'minlangan.

Baholash jarayonida aniqlangan kamchiliklar juz'iy xususiyatga ega bo'lib, ta'lim dasturini yo'lga qo'yishga to'sqinlik qilmaydi hamda ekspert komissiyasining tavsiyalari asosida bartaraf etilishi lozim. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, ekspert komissiyasi xulosasiga asosan 3930002 – Ijtimoiy-gumanitar fanlar (tarix, xorijiy til) ta'lim dasturi belgilangan talablarga **MUVOFIQ** deb baholandi.

## 9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

|                                           |                                |
|-------------------------------------------|--------------------------------|
| Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi: | 16.06.2026                     |
| Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:    | 3-son                          |
| Yakuniy qaror:                            | <b>AKKREDITATSIYADAN O'TDI</b> |



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz  
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

